Kartoshkachilikni rivojlantirish xalqimiz rizq –ro’zini ta’minlash garovidir

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-maydagi “Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug’chiligini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to’g’risida” gi qarori Respublika axolisining iste’mol kartoshkaga bo’lgan ehtiyojini to’la ta’minlash va shu bilan bir qatorda kartoshkachilikka yo’naltirilgan xo’jaliklarni sifatli urug’lik kartoshka bilan ta’minlash borasida o’z vaqtida belgilangan yorqin va shijoatli yechim deb bilamiz. Respublikamizda 120 ming gektardan ko’proq maydonda kartoshka yetishtiriladi va hududlarning iqlim sharoitidan kelib chiqqan xolda 1 gektar maydondan 15 dan 35 tonnagacha kartoshka hosili olinadi. Kartoshka hosildorligiga asosiy ta’sir qiluvchi omillar ekilgan yer maydonining iqlim sharoiti, yerning sifat darajasi, yetarli darajada sug’orish imkoniyatining mavjudligi, sifatli urug’lik bilan ta’minlanganligi, parvarishlash agrotexnologiyasiga to’la rioya qilinganligi, kasalliklardan o’z vaqtida himoyalanganligi va boshqalardan iborat. Ushbu omillardan asosiy va eng ahamiyatlisi hosildor, iste’molga yaroqli, sifatli, kasalliklardan xoli bo’lgan urug’lik kartoshka bilan ta’minlashdan iborat. Shu sababli, faqat ayrim mamlakatlardagina urug’lik kartoshka yetishtirish imkoniyati mavjud. Urug’lik kartoshka yetishtirish keng kamrovli soha bo’lib uning asosini, ma’lum kartoshka navining kasalliklardan (patogen va viruslardan) xoli bo`lgan birlamchi urug’ligini olish va uni bosqichma-bosqich ko`paytirishdan iborat. Donli ekinlardan farqli, kartoshka vegetativ usulda ko’paygani sababli urug’likni doimo yangilanib borishini talab etadi. Shu sababli urug’lik kartoshka yetishtirish hujayra texnologiyalariga asoslangan in vitro usulida birlamchi urug’likni - mikrotuganaklar shaklida yoki in vitro o’simlik sifatida olishdan boshlanadi. Kartoshkaning birlamchi urug’ligi issiqxonalarga yoki patogenlardan xolis yer maydonlariga ekilib yuqori avlodga mansub urug’lik kartoshka yetishtiriladi.

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Bioorganik kimyo instituti tomonidan qator yillar davomida Respublikada urug’lik kartoshka yetishtirish bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu izlanishlar jahon talablari darajasida bajarilmoqda. Jumladan, Institut tomonidan hujayra texnologiyalariga asoslangan in vitro laboratoriya tashkil etilgan va ushbu laboratoriya tomonidan yetishtirilgan mikrotuganaklar, dengiz satxidan 1500-2000 metr yuqori joylashgan yer maydonlariga ekilib ulardan urug’lik kartoshkaning super super elita (SSE), super elita (SE) , elita (E) sinfiga mos avlodlarini olish agrotexnologiyasi yaratilgan.

Respublikada hujayra texnologiyalariga asoslangan in vitro laboratoriya Fanlar akademiyasi Bioorganik kimyo instituti tomonidan 2014-yilda tashkil etilgan bo’lib, unda ushbu sohaning yetakchi mutaxassislari faoliyat yuritadi va ushbu laboratoriya yiliga 1,5- 2 mln dona kartoshka urug’ligi mikrotuganaklarini, zarur holda in vitro o’simligini yetishtirish imkoniyatiga ega.

Ahamiyatlisi shuki, Prezident qarorida hududlarda in vitro laboratoriyalar tashkil etish va ularni ilmiy asosda ishga tushirish mexanizmlari ochib berilgan. Bunday laboratoriyalarni hududlarda yaratish asosida har bir hududning iqlim va boshqa sharoitlariga mos, iste’mol talab kartoshkaning birlamchi urug’ligini yetishtirish imkoniyati yaratiladi.

Hujayra texnologiyalariga asoslangan in vitro laboratoriyalarni tashkil etish kartoshka birlamchi urug’ligi - mikrotuganaklar yoki in vitro o’simliklarni ko’plab miqdorda ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Eng asosiysi, ushbu laboratoriyalarni hujayra texnologiyalari sohasida mutaxasislar bilan ta’minlashdan iborat. Kerakli mutaxassislarni tayorlashda ilm-fan bilan o’zaro hamkorlikni yo’lga qo’yish, mavjud tajribalardan to’la foydalanish zarur deb bilamiz. Hujayra texnologiyalariga asoslangan in vitro laboratoriyalarni tashkil etish xohlagan navdan kartoshka birlamchi urug’ligini yil davomida kerakli miqdorda ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Bioorganik kimyo institutida hujayra texnologiyalariga asoslangan in vitro laboratoriyada patogan va viruslardan xoli bo`lgan kartoshka birlamchi urug’ligini - mikrotuganaklarni olish ishlari yo’lga qo’yildi va ular asosida urug’lik kartoshkaning keyingi yuqori sinf avlodlarini olish mumkinligini ko’rsatildi. Bugungi kunda, Institutning in vitro laboratoriyasi xo’jaliklarga kerakli miqdor kartoshka birlamchi urug’ligini shartnoma asosida yetishtirib berish imkoniyatiga ega.

Urug’lik kartoshka yetishtirishdagi asosiy muammo kartoshka birlamchi urug’ligini – mikrotuganaklarni yoki in vitro o’simligini issiqxona yoki yer sharoitida ekib ko’paytirib undan SSE avlodiga mansub urug’likni yetishtirishdan iborat. Institut tomonidan qator yillar davomida in vitro usulida olingan kartoshkaning “Pskom” va “Sarnav” navlari birlamchi urug’ligi - mikrotuganaklari asosida, ushbu navlarning SSE, SE, E avlodlariga mansub urug’lik kartoshka dala sharoitida Toshkent viloyati Bo’stonliq tumani, Jizzax viloyati Baxmal tumani yer hududlarida yetishtirildi. Oxirgi 3 yil davomida olingan 2000 tonnadan ko’proq SE va E avlodlariga mansub urug’lik kartoshka fermer xo’jaliklariga iste’molga kartoshka yetishtirish uchun sotildi.

Kartoshka urug’chiligi ilmiy asoslarini yaratish bo’yicha Bioorganik kimyo instituti tomonidan olib borilgan izlanishlar shuni ko’rsatmoqdaki, in vitro usulida olingan mikrotuganaklarni yerga ekilishi, yerga moslashuvi, yerda to’la unib chiqishi, o’sish davrida uni kasalliklardan saqlash kabi vazifalarga e’tiborni qaratish lozim.

Prezident qarorida ushbu vazifalarning yechimi o’z aksini topgan. Jumladan, kartoshkachilikka ixtisoslashtirilgan tumanlarda kartoshkachilik klasterlari va kooperatsiyalarini tashkil etish va ekin maydonining kamida 50 % urug’lik kartoshkaning SE va E avlodlarini yetishtirish vazifasi qo’yilgan. Shuningdek, qarorga binoan urug’lik kartoshkani saqlash, saralash, yetkazib berish va qayta ishlashni yo’lga qo’yish unga innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi vazifalar ko’zda tutilgan. Klasterlarning tashkil etilishi xo’jaliklarni urug’lik kartoshkaga bo’lgan e’tiborini oshiradi va endilikda xo’jaliklar bir vaqtda yetishtirgan xosilni iste’mol uchun sotadi va o’zi yetishtirgan urug’likni keyingi yilga ekish uchun oxirgi innovatsion texnologiyalar asosida saqlaydi va kerak bo’lsa urug’lik kartoshka sifatida sotadi yoki eksportga yo’naltiradi.

Qarorda, Xalqaro kartoshkachilik markazi bilan xamkorlikni yo’lga qo’yish asosiy vazifalardan biri etib tayinlangan. Xalqaro kartoshkachilik markazi qator yillar davomida Respublikamizda faoliyat olib boradi. Jumladan, ushbu tashkilotning beg’araz ko’magi orqali Bioorganik kimyo institutida bugungi kunda “Kartoshka biotexnologik kollektsiyasi” mavjud bo’lib, unda kartoshkaning 200 dan ziyod genotiplari, 86 ta germplazmalari va 20 dan ortiq navlari noyob ilmiy obyekt sifatida saqlanmoqda. Hamkorlikda olib borilgan izlanishlar natijasida Institut tomonidan, bugungi kunda kartoshkaning 4 ta yangi navi “Qaysar”, “G’ilon”, “Oybuloq” va “Alvon” yaratilgan va Davlat sinov komissiyasiga topshirilgan. Kelajakda, Xalqaro kartoshkachilik markazi bilan hamkorlikni jadallashtirish Respublikamiz aholisini kartoshkaning erta, o’rta va kechpishar mahalliy navlari bilan ta’minlash imkoniyatini yaratadi.

Respublikamiz Prezidenti tomonidan kabul qilingan ushbu qaror, mamlakatimiz aholisini iste’molga kerakli kartoshka bilan to’la ta’minlash imkoniyatini yaratadi. Qolaversa, xo’jaliklar o’zlarini sifatli urug’lik kartoshka bilan ta’minlaydilar va kelajakda urug’lik kartoshkani eksport qilish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

Shavkat Salixov,

O’zR FA Bioorganik kimyo instituti direktori, akademik.